

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD 03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**

**SAYFULLOYEVA AZIZA G'ULOMJONOVNA**

**O'SMIRLARDA O'Z-O'ZIGA MUNOSABAT MOTIVATSIYASI**  
**RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the  
Psychological Sciences**

**Sayfulloyeva Aziza G‘ulomjonovna**

О‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi rivojlanishining psixologik  
xususiyatlari .....3

**Сайфуллоева Азиза Гуломжоновна**

Психологические особенности развития мотивации к самовосприятию у  
подростков .....23

**Sayfullayeva Aziza Gulomjonovna**

Psychological features of the development of self-perception motivation in  
adolescents .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD 03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI**

**SAYFULLOYEVA AZIZA G'ULOMJONOVNA**

**O'SMIRLARDA O'Z-O'ZIGA MUNOSABAT MOTIVATSIYASI**  
**RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/P1272 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.bxu.uz](http://www.bxu.uz)) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ostanov Shuxrat Sharipovich**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponenlar:** **Karshiyeva Dilafruz Suyunovna**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Jabborov Xazrat Xusenovich**  
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD03/04.01.2025.P.190.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99; email: [bxu@bxu.uz](mailto:bxu@bxu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin \_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200126, Buxoro viloyati, Buxoro shahar, Sitorai Moxi-xossa MFY, Abduxoliq G'ijduvoniy ko'chasi, 250-uy. Tel.: (55) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).



**Sh.R. Baratov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, psixologiya fanlari doktori,  
professor



**M.X. Fayziyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc),  
professor



**D.A. Sobirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda shaxsdagi o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirish muammosi psixologiya fani oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. UNICEF (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, 10–19 yoshdagi o‘smirlarning 18 foizi o‘zini past baholash, ijtimoiy izolyatsiya va emotsional muvozanatsizlik kabi muammolar bilan to‘qnash kelmoqda. CASEL tomonidan 2020-yilda o‘tkazilgan tadqiqotda esa o‘z-o‘zini anglash va o‘zini qadrlash motivatsiyasiga oid dasturlarda qatnashgan o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga qaraganda o‘rtacha 12 foiz yuqori bo‘lgani qayd etilgan. Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasining (APA, 2021) izlanishlari natijasida esa o‘smirlarning 71 foizi o‘z-o‘zini qadrlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omillarini muvaffaqiyatga erishishda hal qiluvchi deb e’tirof etgan. Shu bois, o‘smir shaxsida o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirish global miqyosda dolzarb psixologik muammo sifatida ko‘rilmoqda.

Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilgan izlanishlar o‘smirlarning o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi rivojlanganida ularning ijtimoiy faolligi, refleksiya darajasi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada oshishini ko‘rsatmoqda. PISA (2018) tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘ziga ijobiy munosabati yuqori bo‘lgan o‘smirlarning akademik ko‘rsatkichlari o‘rtacha 25–28 foiz yuqoriroq bo‘lib, ular stressli vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlashga ham moyil bo‘lishgan. Self-Regulated Learning (SRL) konsepsiyasi asosida olib borilgan meta-tahlillar esa bunday o‘quvchilarning mustaqil o‘qishga intilishi va tanqidiy fikrlash qobiliyati 15–20 foiz ortishini aniqlagan. Shu sababli, o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasining reflektiv, emotsional va ijtimoiy jihatlarini kompleks ravishda o‘rganish ilmiy-amaliy izlanishlarda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda o‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Xususan, 2022-yil 11-maydagi PQ-224-son qarorda yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlash, o‘ziga ishonch tuyg‘usini oshirish va ijtimoiy faolligini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Respublika miqyosida o‘tkazilgan psixologik tadqiqotlarda o‘z-o‘zini qadrlash darajasi yuqori bo‘lgan o‘smirlarning ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari 22–24 foiz yuqoriroq ekani aniqlangan<sup>1</sup>. Shu nuqtayi nazardan, o‘smirlarning o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi rivojlanishining psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularni tarbiyaviy va psixologik trening dasturlari orqali mustahkamlash zamonaviy pedagogik-psixologik muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2018-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5590-son, 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar. <http://lex.uz/docs/3107036>.

xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-son farmonlari, 2019-yil 13-fevraldagi "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini shakllantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4190 Qarori, "Ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarga oid beshta tashabbusi" dasturi hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimiz olimlaridan A.Sh.Axrorov, A.A.Fayzullayev, Z.G.Gapparov, Z.R.Ibodullayev, V.M.Karimova, M.X.Karamyan, D.G'.Muxamedova, X.A. Ruxiyeva, R.I.Sunnatova, U.D.Qodirov, G.Q.To'laganova, G'.B.Shoumarov E.G'.G'oziyev va boshqalar o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasi jarayonini ilmiy jihatdan tadqiq qilishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakati olimlari L.G.Dikiy, A.B.Leonova, V.I.Medvedev, K.K.Platonov, Y.Strelkov, L.D.Shaynova, V.P.Zinchenko, T.A.Razuvayeva, T.S.Yermakova va boshqalar shaxs fiziologiyasi, sog'lom turmush tarzini ongli ravishda shakllantirish jarayonlari hamda organizm va psixikaning birgalikdagi holati bo'yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borishgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan A.Bandura, Z.Freyd, A.Freyd, G.Lindsey, E.Krechmer, D.Mayers, A.Maslou, B.Spring, S.Sauyer G.Ollport, K.Tomas va boshqalar o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining tarkib topishi va shakllanishi bo'yicha amaliy tadqiqotlar olib borgan.

Rus olimlari G.M.Andreeva, V.S.Merlin, V.G.Kamenskaya, V.V.Stolin, A.N.Leontev, N.S.Leyte, V.M.Rusalov, V.A.Yadov, O.A.Konopkin<sup>2</sup>, A.V.Petrovskiy, Ivan Ognev tomonidan mazkur muammoga aloqador ilmiy izlanishlar olib borilgan. V.G.Kamenskayaning "Psixologik himoya va nizolar tizimidagi motivatsiyalar" asari psixologik himoya mexanizmlari ma'lum darajadagi nizoli vaziyatlar talqiniga bag'ishlangan.

**Tadqiqotning maqsadi** o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasi rivojlanishining ijtimoiy-psixologik omillarini tadqiq qilish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash;

o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasi jarayonini tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqot metodikalarini tanlash va qo'llash;

o'smirlar guruhida hissiy bezovtalik va psixologik muhofaza mutanosibligi ko'rsatkichlarini o'rganish va tadqiq qilish;

olingan empirik ma'lumotlar va ularning statistik tahlil natijalariga tayanib tegishli ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat

motivatsiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish jarayoni tanlangan bo'lib, Buxoro, Samarqand hamda Qashqadaryo viloyati o'rta umumta'lim maktablaridan jami 240 nafar o'quvchilar jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** o'smirlarning o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishning ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari:** Tadqiqotda kuzatish, suhbat, intervyu metodlaridan, shuningdek, V.V.Stolin va S.R.Panteleyevning "O'z-o'ziga munosabat so'rovnomasi", A.Megrabyanning "Affiliatsiya motivini aniqlash" metodikasi, Ayzenkning "O'zini o'zi hissiy baholash" metodikasi, Tomasning "Ziddiyatni yengishga bo'lgan o'smir xulq-atvor motivatsiyasini o'rganish" so'rovnomasi, "O'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini aniqlash" (Sh.R. Baratov, A.G'.Sayfulloyeva) ijtimoiy-psixologik so'rovnomasidan foydalanildi. Jumladan, tadqiqot jarayonida olingan empirik materiallarni qayta ishlash, ularning statistik ahamiyatlilik darajasini aniqlash uchun matematik statistika usullaridan (K.Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti, Styudentning t-mezoni) foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** quyidagilardan iborat:

o'smirlik davrining yoshga oid psixologik xususiyatlariga ko'ra bolaning "Men" obrazini individuallashtiruvining psixofiziologik o'zgarishlarga bog'liq emotsional kechinmalarning ambivalent ta'sirida namoyon bo'lishiga asoslanib, shaxsiy xavotirlanish darajasining yo'nalish vektorini shaxsning o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining emotsional qadriyatlarga bog'liq rivojlanishini ta'minlovchi psixologik omil ekanligi dalillangan;

o'smirlik davrida o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining rivojlanishida kattalar va tengdoshlar bilan muloqotdagi nizolarni hal qilish uchun tanlangan xulq konstruktivligini shaxsning o'ziga beradigan adekvat bahosi orqali namoyon bo'lishiga erishish zarurligi tufayli o'zaro munosabatlardagi raqobatga intilishning ijtimoiy tan olinishi ehtiyojiga bog'liq ravishda hamkorlikka intilish pozitsiyasiga o'zgarishini ta'minlash muhimligi asoslangan;

o'smirlarda konstruktiv o'z-o'ziga munosabatning rivojlanishi shaxslararo muloqotda rad etilishdan qo'rqish shaxsiy "ego"ning darajaviy vektorlari ta'sirida boshqalarga individual munosabatning shakllanishiga olib kelganligi tufayli affilatsiya motivlarining "kattalik hissi"ga asoslangan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga intilish xususiyatining amalda namoyon bo'lishiga yo'naltirilganligi bilan bog'liq ekanligi dalillangan;

o'smirda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirish uchun shaxsning o'ziga beradigan bahosini adekvatlashtirish, o'zini qabul qilish orqali boshqalarni qabul qilish xususiyatini namoyon bo'lishiga erishish zarurligiga asoslanib, affilatsiya motivlarini amalda ifodalanish darajasiga emotsiyalarning ambivert ta'sirini refleksiv xususiyatlar orqali konstruktiv "Men" shakllanishiga yo'naltirish muhimligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

"o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish" modeli yaratilgan va ta'lim tizimida qo'llangan;

o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishga doir treninglar majmui ishlab chiqilgan;

o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi:** ishda qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tadqiqotlarning metodik jihatdan to'g'riligi, yetarli darajada material tanlanganligi, respondentlar sonining yetarliligi, qo'llanilgan usullarning zamonaviyligi, psixologik test, kuzatish, ijodkorlikni baholovchi so'rovnomalar va statistik usullar asosida o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik omillari o'ziga xosligi xalqaro hamda mahalliy tajribalar bilan taqqoslangani, xulosa, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishning tadqiq qilish modelining ishlab chiqilganligi, o'rganilayotgan muammoni ilmiy jihatdan ochib berish va bakalavriat hamda magistraturada tahsil olayotgan talabalarni tayyorlashga doir oliy ta'limning malaka talablarini ishlab chiqishda, o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha dasturlar yaratishda, o'qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida qo'llash mumkinligining nazariy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'smirlarning o'quv faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirish bo'yicha tayyorlangan samarali trening dasturini qo'llash imkoniyati bilan belgilanib, dissertatsiya ishi natijalaridan talabalarni o'qitishda, umumiy psixologiya, psixologik xizmat asoslari, kasb psixologiyasi va ijtimoiy psixologiya fanlari bo'yicha o'quv dasturi, qo'llanmalar yaratishda, ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlar tayyorlash jarayonida qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "O'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasi rivojlanishi" bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o'smirlik davrining yoshga oid psixologik xususiyatlariga ko'ra bolaning "Men" obrazini individuallashtiruvining psixofiziologik o'zgarishlarga bog'liq emotsional kechinmalarning ambivalent ta'sirida namoyon bo'lishiga asoslanib, shaxsiy xavotirlanish darajasining yo'nalish vektori shaxsning o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini emotsional qadriyatlarga bog'liq rivojlanishini ta'minlovchi psixologik omil ekanligi dalillanganligiga oid xulosalardan O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazi a'zolarining 2025-yil 16-iyundagi MU-362a-son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan. (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 19-iyundagi MU-362-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik omillar orqali samaradorligiga erishilgan.

o'smirlik davrida o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining rivojlanishida kattalar va tengdoshlar bilan muloqotdagi nizolarni hal qilish uchun tanlangan xulq

konstruktivligini shaxsning o'ziga beradigan adekvat bahosi orqali namoyon bo'lishiga erishish zarurligi tufayli o'zaro munosabatlardagi raqobatga intilishning ijtimoiy tan olinishi ehtiyojiga bog'liq ravishda hamkorlikka intilish pozitsiyasiga o'zgarishini ta'minlash muhimligi asoslangan tavsiyalardan O'zbekiston milliy pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazi a'zolarining 2025-yil 16-iyundagi MU-362a-son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" modulida foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 19-iyundagi MU-362-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'smirlarning o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishning ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini oshirilgan.

o'smirlarda konstruktiv o'z-o'ziga munosabatning rivojlanishi shaxslararo muloqotda rad etilishdan qo'rqish shaxsiy "Ego"ning darajaviy vektorlari ta'sirida boshqalarga individual munosabatning shakllanishiga olib kelganligi tufayli affilatsiya motivlarining "kattalik hissi"ga asoslangan ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga intilish xususiyatini amalda namoyon bo'lishiga yo'naltirilganligi bilan bog'liq ekanligi dalillangan tavsiyalardan Psixologiya o'quv-ilmiy markazi a'zolarining 2025-yil 16 iyundagi MU-362a - son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" modulini faoliyatga joriy etish jarayonida foydalanilgan. (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti qoshidagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 19-iyundagi MU-362-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasi mezonlari samarali rivojlantirishga erishilgan.

o'smirda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirish uchun shaxsning o'ziga beradigan bahosini adekvatlashtirish, o'zini qabul qilish orqali boshqalarni qabul qilish xususiyatini namoyon bo'lishiga erishish zarurligiga asoslanib, affilatsiya motivlarini amalda ifodalanish darajasiga emotsiyalarning ambivert ta'sirini refleksiv xususiyatlar orqali konstruktiv "Men" shakllanishiga yo'naltirish muhimligi dalillanganligi ilmiy natijalardan Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 16-iyundagi MU-362a-son buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 19-iyundagi MU-362-son ma'lumotnomasi). Natijada "O'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini ijtimoiy-psixologik omillar orqali ta'minlash modeli" ishlab chiqilgan va uning samaradorligi oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda, 6 ta xalqaro jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi ilovalardan tashqari 126 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ishning fan va texnologiyalar rivojlanishining muhim yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning amaliyotda joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi ijtimoiy-psixologik muammo sifatida”** deb nomlangan birinchi bobida o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi muammosining nazariy-ilmiy asoslariga tayangan holda o‘smirlarda munosabat motivatsiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik tamoyillari bilan bog‘liq tahliliy sharhlar keltirilgan.

O‘zbek olimlaridan M.G Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, V.A.Tokaryeva, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, N.S.Safoyev, G.Berdiyev, S.X.Djalilova, M.Qoplonova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, X.A.Ruxiyeva, Sh.A.Eshmyetov, K.B.Qodirov va boshqalar o‘smir shaxsining o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat motivatsiyasi hamda hissiy-emotsional holatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan M.G.Andreyeva, Yu.M.Zabrodin, I.S.Kon, G.B.Koralyev, B.D.Parigin, Ye.V.Shoroxova, Abulxanova-Slavskaya, J.Bruner, L.S.Vigotskiy, A.G.Kovalyev, A.N.Leontyev, S.L. Rubinshteyn, V.A.Tokaryeva va boshqalar shaxsni o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi uchun muhim nazariy-ilmiy ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy psixologik vazifalarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqoridagi ilmiy mulohazalardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O‘zbekistonda motiv va motivatsiyasi muammosi bo‘yicha yetarli ilmiy ishlar olib borilgan. Chunonchi, o‘quv fanlariga nisbatan motiv va motivatsiyaning namoyon bo‘lishi; kasb tanlash motivlari; motivning etnopsixologik xususiyatlari, tadbirkorlik motivatsiyasi kabi masalalar psixologiyaning turli yo‘nalishlarida tadqiqot obyektiga aylantirilgan. Lekin aynan o‘smirlar guruhida o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini shakllanishining ijtimoiy-psixologik tomonlari yetarlicha ochib berilmagan.

Dissertatsiyaning **“O‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi mezonlarini tadqiq qilishning amaliy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida o‘rganilayotgan muammoning empirik tahlili keltirilgan bo‘lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi, olingan natijalarning tahlili o‘z aksini topgan. Shuningdek, mazkur bobda o‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi mezonlarini tizimini tadqiq qilish uslubi tanlab olindi (1-jadval).

Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasining shakllanganlik darajasi va uning o‘quv faoliyatiga ta‘sirini bilish maqsadida V.V. Stolin va Pantileyevning **“O‘z-o‘ziga munosabat so‘rovnomasi”** imkoniyatlaridan foydalanildi.

**O‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi namoyon etilishining umumiy ko‘rsatkichlari) (N=240)**

	<b>Omillar</b>	<b><math>\chi</math></b>	<b><math>\sigma</math></b>
<b>“O‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat so‘rovnomasi” (V.V.Stolin, S.R.Pantilejev)</b>	O‘z-o‘zini hurmat qilish	6,15	1,58
	Autosimpatiya	6,10	1,63
	Boshqalardan kutilgan munosabat	6,26	1,47
	Shaxsiy manfaat	5,21	1,49
	O‘z-o‘zini qabul qilish	5,01	1,89
	O‘zini ayblash	6,13	1,62
	O‘z-o‘zini tushunish	5,09	1,54
	O‘ziga ishonch	5,08	1,62
	Boshqalarning munosabati	6,46	1,55

Keltirilgan jadval natijalaridan yaqqol ko‘rinib turibdiki, mazkur so‘rovnoma bo‘yicha aniqlangan o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi ko‘rsatkichlari 6 va 9-sinf o‘quvchilari orasida turli xil darajalarga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi. O‘smirlarning “O‘z-o‘zini hurmat qilish” ( $6,15 \pm 1,58$ ) omili o‘smirlarda ushbu omil bilan bog‘liq psixologik xususiyatlarini namoyish eta olmasliklari bilan xarakterlanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘smirlarga o‘qituvchilar tomonidan berilayotgan e‘tibor hamisha ham ularning o‘ziga xos imkoniyatlariga mos kelavermaydi. Shu boisdan ular o‘zlarini to‘liq namoyon etavermaydi. Ko‘pincha, o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. Ayrim hollarda o‘ta asabiylashgan holda o‘quv topshiriqlarini bajaradi, o‘z faoliyatidan qoniqmaydi va hokazo. Fikrimizning dalili sifatida respondentlar ko‘pchilik oldida o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. “Autosimpatiya” omilida ( $6,10 \pm 1,63$ ) o‘smirlarda quyidagi natijalar ko‘zga tashlandi. “Boshqalardan kutilgan munosabat” mezoni ( $6,26 \pm 1,47$ ) da o‘smirlar faoliyatlari davomida atrofidagi odamlardan hamisha ham o‘zlari kutgan munosabatni olavermas ekan. Chunki ular bu davrda ko‘proq mustaqil fikrlashga, o‘z “Men”larini bo‘rttirib ko‘rsatishga, o‘zlarini boshqalardan oz bo‘lsa-da ustun ekanliklarini ko‘rsatishga va shu yo‘l bilan o‘zlarini muhofaza qilishga moyil bo‘ladi. “Shaxsiy manfaat” ( $5,21 \pm 1,49$ ) o‘smirlik yoshida dominanta omillardan biri hisoblanib, uning hayotida muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, o‘smirlar shaxsiy motivatsiyasi, o‘z-o‘ziga munosabat omili sifatida o‘ziga xos individual uslubni namoyon qila olish kabi xususiyatlarning o‘smir shaxsida va faoliyatida namoyon etilishi bilan uyg‘unlikda rivojlanib borar ekan. O‘z-o‘zini qabul qilish va o‘z-o‘zini tushunish ( $5,01; 5,09$ ) omillarining rivojlanganligi o‘smirning o‘z-o‘ziga hamda vaziyatlarga yoki faoliyatga nisbatan faolligi yoki sustligi uning ijobiy yoki salbiy ichki hissiy holatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Bu ichki holat esa shaxs faoliyati umumdorligini ham belgilovchi muhim omillardan bo‘lishi mumkin. Jumladan, taniqli psixolog K. Izardning fikricha, inson faoliyatining yoki faolligining samaradorligi asosan “o‘ziga”, “o‘zini tushunish”, “o‘zini qabul qilish” kabi hissiy kechinmalarga bog‘liqdir. Binobarin, ichki hissiy kechinmalar to‘g‘ri yo‘naltirilmas ekan, shaxsning o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi

yetarlicha rivojlanmay qolishi mumkin. Bu ziddiyatlar qanchalik kuchaysa, shaxsning o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi imkoniyatlari shunchalik sustlashib boradi. Natijada, o‘smir shaxsining ijtimoiy taraqqiyoti va shaxs sifatidagi faolligi bir muncha zaiflashadi.

Boshqalarni munosabati va o‘ziga ishonch mezonining (5,8,6,46) o‘smir shaxsida shakllanganligi, ularning nafaqat o‘quv jarayonida balki, shaxsiy rivojlanishlarida ham muhim rol o‘ynaydi. Avvalo shuni aytish kerakki, shaxsning o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini baholashda shaxsiy faoliyat va faolligining mazmuni, talablari hamda ijtimoiy psixologik jihatdan to‘g‘ri – “adekvat” yo‘naltirilganlikning bugungi kunda o‘smirda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasida qay tariqa o‘rin tutayotganligiga empirik materiallar asosida baho berish muhim faktorlardan hisoblanadi. Yuqorida olingan empirik ma’lumotlar tadqiqot maqsadiga mos qo‘llanilgan asosiy va qo‘shimcha usullar hamda jadvaldagi ma’lumotlar shundan guvohlik beradiki, o‘smirlikning dastlabki davrida ham, oxirgi bosqichida ham o‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini bir xilda shakllanmaganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida “O‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasi” hamda “Affiliatsiya motivatsiyasini o‘rganish” metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion natijalar tahliliga o‘tamiz.

Shuningdek, tadqiqotimizda o‘smirlarda o‘zimiz tomondan ishlab chiqilgan “O‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini aniqlash” (IPS) so‘rovnomasi hamda Ayzenkning “O‘z-o‘zining ruhiy holatlarni baholash” metodikasi ko‘rsatkichlari o‘rasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalarining ham tahlilini olib bordik.

## 2-jadval

### «O‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini aniqlash”(IPS) so‘rovnomasi hamda "O‘z-o‘zining ruhiy holatlarni baholash" (Ayzenk) metodikasi ko‘rsatkichlari o‘rasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=240)

Omillar	O‘z-o‘zini anglash	O‘z-o‘zini bilish	O‘z-o‘zini aks ettirish	O‘ziga nisbatan hissiy munosabat	O‘zini-o‘zi boshqarish
Qo‘rquv-xavotir	0,12	0,49	0,53	0,02*	0,40
Agressivlik	0,15	0,08	0,14	0,36*	-0,05
Rigidlik	0,23	0,17	0,16*	0,13	-0,31*
Frustratsiya	0,35	0,09	-0,56	0,43*	0,07

Metodikaning dastlabki “qo‘rquv xavotir” omili “o‘z-o‘ziga nisbatan hissiy holat” ( $r=0,02$ ;  $p \leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiyaga kirishdi. Demak, o‘smirlar faoliyatlari davomida qanchalik o‘zlarini bilib, ichki hissiy munosabatni adekvat boshqara olmasa, ularda qo‘rquv, xavotir omili shunchalik yuqori bo‘lishini ta’minlar ekan. Bu esa ularda o‘z-o‘ziga nisbatan salbiy motivatsiyaning

shakllanishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga o'smirlik davrining yoshga oid psixologik xususiyatlariga ko'ra bolaning "Men" obrazini individuallashtiruvining psixofiziologik o'zgarishlarga bog'liq emotsional kechinmalarning ambivalent ta'sirida namoyon bo'lishi ushbu holatning ichki mexanizmini tushuntiradi. Natijada shaxsiy xavotirlanish darajasining yo'nalish vektori shaxsning o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining emotsional qadriyatlariga bog'liq tarzda rivojlanishini ta'minlovchi psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi.

"Aggressivlik" omili esa "o'z-o'ziga nisbatan hissiy holati" ( $r=0,36$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy korrelyatsiyaga kirishdi. O'smirlarda shakllangan hissiy holatlarni to'g'ri boshqara olmaslik, o'z atrofida gilari bilan tez janjalashib ketish, ota-onalari, o'qituvchilari bilan bahs-munozaraga kirishuvchanlikning yuqori bo'lishi bora-bora ularning psixikasida agressiyaning kuchayishiga olib kelishi mumkin ekan.

"Rigidlik" omili asosan o'zini idrok qilish jarayoni bilan ya'ni "o'z-o'zini aks ettirish" bilan ( $r=0,16$ ;  $r\leq 0,05$ ) bog'liq bo'lib, o'smirlar uchun muhim jarayon hisoblanadi. Chunki o'smirlarning dunyoqarashi va tafakkuri asosan, ularning atrof-muhit hamda insonlarga bo'lgan munosabati orqali shakllanadi. Bu esa bevosita o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining shakllanishida muhim funktsiya hisoblanadi.

"Frustratsiya" omili esa "o'z-o'zini aks ettirish" omili bilan ( $r=-0,56$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan teskari korrelyatsiya hosil qildi. Demak, o'smirlarning o'z-o'zini noto'g'ri idrok qilish hamda ijtimoiy kutilmalarning noto'g'ri qo'yilishi bevosita o'smirlarda frustratsiyani yuqori darajada bo'lishini ta'minlashga xizmat qilar ekan. Olingan natijalar orasidagi psixologik qonuniyatlar shundaki, bunda o'smirlik yoshi oshgan sari maktab hayoti bilan bog'liq motivatsiyalarning me'yordan pastki-quyi shkalasi ko'rsatkichlari nisbatan kamayib, me'yordan yuqori shkala ko'rsatkichlari nisbatan ko'tarilib boradi. Buning asosiy sababi bizga qo'shimcha usullarni qo'llash orqali aniq bo'lganidek, har bir o'quvchi o'smirlikning dastlabki davrida o'zining mazkur yo'nalish bo'yicha o'z-o'ziga munosabat motivatsiyalarini yetarlicha namoyon qilmasa-da, o'smirlikning oxiriga kelib ularning ijtimoiy kutilmalari qoniqtirmayotgani nisbatan ko'proq bezovta qilayotgani, jamiyat talablari va yaqin kishilariga nisbatan ma'lum darajada qoniqmaslik bilan qarayotganligi kabi holatlar ularning javoblarida yaqqol ifodalananayotganligini ko'ramiz.

Demak, yuqoridagi tahlillardan ko'rish mumkinki, o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasini rivojlantirishda ularning hissiy holatining ahamiyati va roli nihoyatda katta ekan. Ayni paytda yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasining ko'rsatkichlarini tahlil qilish, uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini o'rganish bugungi kunda ijtimoiy islohotlar uchun muhim muammolardan biridir. Yuqoridagi tahlillarimiz asosida o'smirlarda o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasi va unga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi statistik bog'lanishlarda bir xillikni kuzatish qiyin, ammo ularning yosh xususiyatlari va ijtimoiy tajribalarining ortib borishi barobarida o'zgarishlar bo'lishi tabiiy ekanligini ko'rsatdi. Ayni paytda, yuqoridagi empirik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'smirlarning o'z-o'ziga munosabat motivatsiyasi bilan affiliatsiya motivlarining birday rivojlanmaganligi, ularning ma'lum bir psixologik tadbirlarga zarurat borligini ko'rsatmoqda.

**“O‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini aniqlash”(IPS) so‘rovnomasi hamda  
“O‘z-o‘zining ruhiy holatlarini baholash” (Ayzenk) metodikasi  
ko‘rsatkichlari o‘rasidagi korrelyatsion bog‘lanish natijalari (n=240)**

<b>Omillar</b>	<b>O‘z-o‘zini anglash</b>	<b>O‘z-o‘zini bilish</b>	<b>O‘z-o‘zini aks ettirish</b>	<b>O‘ziga nisbatan hissiy munosabat</b>	<b>O‘zini-o‘zi boshqarish</b>
Qabul qilinishga intilish	0,32	0,38	0,13	0,40	0,15
Rad etilishdan qo‘rqish	-0,12	-0,35	-0,41	-0,08	-0,10

“O‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini aniqlash”(IPS) so‘rovnomasi hamda “O‘z-o‘zining ruhiy holatlarni baholash” (Ayzenk) metodikasi orqali olingan natijalar tahliliga o‘tadigan bo‘lsak, “Qabul qilinishga intilish” omili “O‘z-o‘zini anglash” ( $r=0,32$ ;  $p\leq 0,05$ ), “O‘z-o‘zini bilish” ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda “O‘ziga nisbatan hissiy munosabat” ( $r=0,40$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan ijobiy bog‘lanishlarni qayd etdi.

“Qabul qilinishga intilish” omili “O‘z-o‘zini bilish” bilan ham ijobiy bog‘lanishni qayd etdi ( $r=0,38$ ;  $p\leq 0,05$ ). Mazkur bog‘lanish natijalari o‘smirlarning ijtimoiy qabul qilinish ehtiyoji kuchli bo‘lganda ularning o‘zini bilish jarayonlari ham samaraliroq kechishini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, o‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga munosabat motivatsiyasini rivojlanishida kattalar va tengdoshlar bilan muloqotdagi nizolarni hal qilish uchun tanlangan xulq konstruktivligining shaxsning o‘ziga beradigan adekvat bahosi orqali namoyon bo‘lishiga erishish zarurligi aniqlangan. Bu esa o‘zaro munosabatlardagi raqobatga intilishning ijtimoiy tan olinishi ehtiyojiga bog‘liq ravishda hamkorlikka intilish pozitsiyasiga o‘zgarishini ta‘minlash muhimligini ko‘rsatadi.

Eng kuchli bog‘lanishlardan biri sifatida “Qabul qilinishga intilish” va “O‘ziga nisbatan hissiy munosabat” omillari o‘rtasida ekanligi qayd etildi. Ya‘ni qabul qilinishga intilishi yuqori bo‘lgan o‘smirlar o‘zlariga nisbatan iliqroq, ijobiyroq hissiyotlarni shakllantiradi. Bu esa o‘zini qadrlash, o‘ziga ishonch va shaxsiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy psixologik zamin bo‘lib xizmat qiladi. Bunday natija o‘smirlik davridagi emotsional muvozanat va ijtimoiy moslashuv uchun muhim ahamiyatga ega.

“Rad etilishdan qo‘rqish” omili esa “O‘z-o‘zini bilish” ( $r=-0,35$ ;  $p\leq 0,05$ ) va “O‘z-o‘zini aks ettirish” ( $r=-0,41$ ;  $p\leq 0,05$ ) bilan salbiy aloqadorlik aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, rad etilishdan qo‘rqish kuchaygan sayin o‘smirlarning o‘zini bilish darajasi pasayadi ( $r=-0,35$ ;  $p\leq 0,05$ ). Buning sababi shundaki, o‘zini yaxshi biladigan shaxslar o‘z qobiliyatlari, kuchli va zaif tomonlarini real baholashga qodir bo‘ladi va ular tashqi tanqid yoki rad etilish holatlariga nisbatan chidamliroq bo‘ladi. Aksincha, rad etilishdan qo‘rqadigan o‘smirlar tashqi baholarga haddan tashqari bog‘lanib qolganlari sababli o‘zini to‘liq idrok etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu esa shaxsiy mustaqillik va psixologik barqarorlikning yetarlicha shakllanmaganini ko‘rsatadi.

Navbatdagi bosqichda “O‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivasiyasi” hamda “affiliatsiya motivasiyasini o‘rganish” metodikalari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlillarni ko‘rib chiqamiz.

#### 4-jadval.

**O‘smirlarda o‘z-o‘ziga munosabat motivasiyasi hamda affiliatsiya motivasiyasini o‘rganish metodikalarining ko‘rsatgichlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari (Spirman mezon) (Megrabyan va Stolin, Pantilejev metodikalari asosida) (n=240)**

Mezonlar		Affiliatsiya motivi	
		Qabul qilinishga intilish	Rad etilishdan qo‘rqish
O‘z-o‘ziga munosabat motivasiyasi	O‘z-o‘zini hurmat qilish	0,675*	0,21
	Autosimpatiya	0,633*	0,64
	Boshqalardan kutilgan munosabat	0,648*	-0,18
	Shaxsiy manfaat	-0,219	0,61*
	O‘z-o‘zini qabul qilish	0,559*	-0,363
	O‘zini ayblash	-0,178	0,311*
	O‘z-o‘zini tushunish	0,421*	0,202
	O‘ziga ishonch	0,365*	-0,012
	Boshqalarning munosabati	-0,063	0,526*

Izoh: \*  $r \leq 0,05$ , \*\*  $r \leq 0,01$

“O‘z-o‘zini hurmat qilish” omili bilan “Qabul qilinishga intilish” o‘rtasida aniqlangan ijobiy bog‘lanish o‘smir shaxsining o‘zini qadrlash darajasi yuqori bo‘lganda ijtimoiy qabul ehtiyoji kuchliroq bo‘lishini ko‘rsatadi ( $r=0,675$ ;  $p \leq 0,05$ ). Ushbu bog‘lanish shuni anglatadiki, o‘ziga nisbatan ijobiy qarash shakllangan shaxs boshqalar tomonidan iliq munosabatni izlashga moyil bo‘ladi. Bu jarayonda o‘z-o‘zini qadrlashning yuqoriligi shaxsning ijtimoiy motivatsiyasini qo‘zg‘atib, unga faol ijtimoiy integratsiya imkonini beradi. O‘zini hurmat qiladigan o‘smirlar jamoadagi o‘rnini mustahkamlashga intilib, ijtimoiy maqomni sezilarli darajada oshirishga harakat qiladi. Mazkur natija ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan qaralganda, shaxsiy o‘zini qadrlash va ijtimoiy ehtiyojlarning bir-biriga uyg‘un ravishda rivojlanishini ifodalaydi. Bu esa shaxsning ichki psixologik kuchi bilan tashqi ijtimoiy ehtiyojlari o‘rtasida muvozanat yaratadi.

“Autosimpatiya” va “Qabul qilinishga intilish” o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish shaxsning o‘ziga nisbatan iliq munosabati boshqalardan qabul ko‘rish istagini oshirishini bildiradi ( $r=0,633$ ;  $p \leq 0,05$ ). Autosimpatiya yuqori bo‘lganda, o‘smir o‘zini ijobiy baholaydi va shu asosda jamiyatdan ilqlilik izlaydi. Ushbu bog‘lanish shaxsiy emotsional ijobiylik va ijtimoiy ehtiyojlarning bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘ziga nisbatan xushmuomalalik jamoadagi o‘rinni ijobiy qabul qilish imkonini beradi. Shaxs o‘zini qadrlis his qilsa, boshqalarning munosabatini ham ko‘proq qadrlaydi. Bunday uyg‘unlik shaxsning ijtimoiy munosabatlarda faol

ishtirokini ta'minlaydi. Autosimpatiya o'smirning ijtimoiy motivlarini kuchaytirib, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu omil ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirishga yordam beradi. O'ziga iliq munosabat bildirgan shaxs boshqalar bilan yaqin aloqalarga ko'proq moyil bo'ladi. Ushbu natija shaxsiy emotsional ijobiylikning ijtimoiy qabul ehtiyojiga bevosita ta'sirini ochadi. O'smirning autosimpatik munosabati uning ijtimoiy aloqalarda ishonchli bo'lishini kuchaytiradi. Jamoadan qabul ko'rish ehtiyoji o'z-o'zini xush ko'rish bilan uyg'unlashganda shaxs yanada faol bo'ladi. Bu jarayon shaxsning ijtimoiy o'zini tasdiqlash jarayonini kuchaytiradi.

“Boshqalardan kutilgan munosabat” va “Qabul qilinishga intilish” o'rtasida sezilarli ijobiy bog'lanish qayd etilib, bu tashqi bahoga sezgir o'smirlarning ijtimoiy qabulga intilishi kuchliroq bo'lishini ko'rsatadi ( $r=0,648$ ;  $p\leq 0,05$ ). Ushbu natija shaxsning tashqi munosabatlarga tayanishi uning ijtimoiy motivatsiyasining belgilashini bildiradi. O'smir boshqalardan qanday munosabat kutsa, o'zini shunga mos tarzda yo'naltiradi. Kutilgan munosabat ijtimoiy qabul ehtiyojini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. O'smirlar ko'pincha boshqalarning bahosiga qarab ijtimoiy harakat qiladi. Ushbu bog'lanish shaxsning tashqi fikrga bog'liqligi va ijtimoiy ehtiyojlarining o'zaro uyg'unligini ochib beradi. Tashqi bahoga sezgirlik jamoadagi intilishlarni ham oshiradi. Kutilgan munosabat ijtimoiy stress manbai bo'lishi bilan birga, ijtimoiy faollikni ham rag'batlantiradi. Bunday holat shaxsning o'z-o'ziga munosabat va ijtimoiy motivlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Shaxs o'zidan ijobiy kutishlar shakllantirganda, ijtimoiy qabulga intilish yanada kuchayadi. O'smirning ijtimoiy rolni to'g'ri bajarishida bu omil muhim bo'lib xizmat qiladi. Kutilgan munosabat shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini ham belgilaydi. O'smirning ijtimoiy qabulga bo'lgan intilishi tashqi baholar bilan uzviy bog'liqdir.

“Shaxsiy manfaat” va “Rad etilishdan qo'rqish” o'rtasidagi ijobiy bog'lanish o'z shaxsiy ehtiyojlarini ustuvor qo'yadigan o'smirlar ijtimoiy rad etilishdan ko'proq xavotirlanishini ko'rsatadi ( $r=0,61$ ;  $p\leq 0,05$ ). Bu holat shaxsning shaxsiy manfaatlari va ijtimoiy ehtiyojlari o'rtasida qarama-qarshilik mavjudligini bildiradi. Shaxsiy manfaat ustuvor bo'lganida, u ijtimoiy rad etilishdan qo'rqishni kuchaytiradi. Ushbu bog'lanish shaxsning ichki ehtiyojlari va tashqi xavotir omillari uyg'unligini aks ettiradi. O'smirlar o'z shaxsiy maqsadlarini ilgari surganida jamoadan chetlanib qolish xavotiri kuchliroq bo'ladi. Rad etilishdan qo'rqish shaxsiy manfaatlarning himoya mexanizmi sifatida ham namoyon bo'ladi. Bu o'smirlik davrida psixologik moslashuv qiyinchiliklarini ko'rsatadi. Shaxsiy manfaat kuchli bo'lsa, ijtimoiy xavotir ham ortib boradi. Bu bog'lanish shaxsiy ehtiyojlar va ijtimoiy ehtiyojlarning murakkab munosabatini ochib beradi. Rad etilishdan qo'rqish o'z shaxsiy manfaatlarni himoya qilishda qo'shimcha kuch sifatida harakat qiladi. O'smirlar bu holatda ijtimoiy rad etilishdan qochish uchun turli psixologik strategiyalarni ishlab chiqadi. Shaxsiy manfaat va ijtimoiy xavotir uyg'unligi shaxsning psixologik barqarorligiga ta'sir qiladi. Natijada bu bog'lanish shaxsiy ehtiyojlarning ustuvorligi ijtimoiy xavotirni oshirishini ifodalaydi ( $r=0,61$ ;  $p\leq 0,05$ ).

“O'z-o'zini qabul qilish” va “Qabul qilinishga intilish” o'rtasidagi ijobiy

hamda “Rad etilishdan qo‘rqish” bilan salbiy bog‘lanish shaxsning o‘zini qabul qilishi kuchli bo‘lganda rad etilish xavotiri kamayishini anglatadi ( $r=0,559$ ;  $p\leq 0,05$  va  $r=-0,363$ ;  $p\leq 0,05$ ). Ushbu natija o‘zini qabul qilishning ijtimoiy motivatsiyaga ikki xil ta‘sirini ko‘rsatadi. O‘zini qabul qiladigan o‘smirlar ko‘proq qabul qilinishga intiladi. Shu bilan birga ular rad etilishdan qo‘rqmaydi. Bu shaxsning ichki ijobiy munosabati va ijtimoiy xavotirni kamaytirish o‘rtasidagi uyg‘unlikni bildiradi. O‘zini qabul qilish shaxsiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omildir. Ushbu bog‘lanish o‘smirlarning ijtimoiy faolligiga ijobiy ta‘sir qiladi. Shaxs o‘zini qabul qilsa, boshqalarning bahosiga kamroq bog‘lanadi. Natijada rad etilishdan qo‘rqish kamayadi. Bu shaxsning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy qabulga intilish esa mustahkamlanadi. O‘zini qabul qilish ijtimoiy motivatsiyani muvozanatlashtiradi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanishida bu omil muhim ahamiyat kasb etadi.

